



QURILISH ISHLARI 2020- yilning yanvar oyi holatiga

Raqamlar:

Qurilish ishlari
hajmi -
213,6 mlrd. so'm

Yirik qurilish
tashkilotlari ulushi
10,6 %

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar
ulushi -
67,6 %


Norasmiy sektor
ulushi -
21,8 %

2020-yilning yanvar oyida Namangan viloyatida jami 213,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 22,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 10,6 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 martaga o'sdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,6 % i yoki 144,5 mlrd. so'm to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 21,8 % yoki 46,5 mlrd. so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar oyida Namangan viloyatida jami 213,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,5 mlrd. so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2020-yil yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 22,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,6 mlrd. so'mga ko'paydi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 144,5 mlrd. so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,6 mlrd. so'mga ko'paydi.

Norasmiy sektor hissasi 46,5 mlrd. so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 mlrd. so'mga ko'paydi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 136,9 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 27,1 mlrd. so'mga ko'paygan.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 32,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 7,9 mlrd. so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 44,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 10,4 mlrd. so'mga ko'paygan.

Yanvar oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- *Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari*
- *Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari*
- *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Yanvar oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- *Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari*
- *Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari*
- *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari bajarilmagan bo'lib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 100 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 66,2 % (5,5 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 33,8 % (4,5 % ga kamayish) ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 60,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 50,2 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 38,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 49,2 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 0,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,1 % ga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilga nisbatan 5,3 % punktga ko'paydi va 6,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 93,7 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,4 % punktga kamaydi.



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari


Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 200,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,8 % ni tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga kamaydi.



QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining, 70,2 % i yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan.




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (57,6 mlrd. so'm yoki 132,8 %) - Namangan shahrida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish obyektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Uychi tumanida (20,9 mlrd. so'm yoki 104,4 %) - Uychi tumani hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes subyektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Namangan tumanida (26,3 mlrd. so'm yoki 101,5 %) - Namangan tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2019-yil yanvar (mlrd. so'm)	2020-yil yanvar (mlrd. so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%) da	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:		168,1	213,6	114,3	100,0
1	Namangan shahar	38,8	57,7	132,8	27,0
	<i>tumanlar:</i>				
2	Mingbuloq	3,8	4,8	116,1	2,2
3	Kosonsoy	12,8	16,2	114,2	7,6
4	Namangan	23,2	26,3	101,5	12,3
5	Norin	6,4	6,9	98,5	3,2
6	Pop	6,9	11,8	152,8	5,5
7	To'raqo'rg'on	15,3	18,1	106,9	8,5
8	Uychi	17,9	20,9	104,4	9,8
9	Uchqo'rg'on	13,3	16,0	108,4	7,5
10	Chortoq	8,6	10,5	110,7	4,9
11	Chust	9,9	11,3	103,5	5,3
12	Yangiqo'rg'on	11,2	13,2	106,3	6,2

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 57,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,8 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 16,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan


yilning mos davriga nisbatan 14,2 % ga o'sdi, Pop tumanida 11,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,8 % ga o'sdi, Uychi tumanida 20,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga o'sdi. Chust tumanida 11,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga o'sdi, Yangiqo'rg'on tumanida 13,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 27,0 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 12,3 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 9,8 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 3,2% ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Chortoq tumanida 4,9 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

**2020-yilning yanvar oyida qurilish ishlarining
umumiy hajmda hududlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan % da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi
Aloqa telefoni: (69) 227-84-85